

HAZRATI ABU BAKR SIDDIQNING ISLOMDAN OLDINGI VA KEYINGI HAYOTLARI

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid O'lmastonovich

Islom Mavlonov Mavlon o'gli

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali KI23_03 guruhi talabasi

Telefon raqami: +998-90-342-09-47

Elektron pochta manzili : mavlonov.i6712@gmail.com

Antonatsiya:

Ushbu maqola johiliyat davrida ilk marta islom dinini qabul qilgan saxobanining hayoti, islomgacha va xalifalik davrida qilgan ishlari shuningdek. Rasululloh va saxobalarning boshidan kechirgan qiyinchiliklari., Abu Bakr bilan rasululloh o'rtaсидagi munosabatlar haqida .

Kalit so'zlar: siddiq, xalifa, Havz, Atiq, Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya, Taym qabiasi, Quraysh, xun,

Johiliyat davri deganda islomdan oldingi davrda Arabiston yarim orolidagi davr tushuniladi. Bu davr ko'pincha jaholat, xurofot, butparastlik va johillik bilan bog'liq. Bu davr arab jamiyatida qabilachilik, qon adovatlari, ayollar huquqlariga hurmatsizlik, qullik kabi ko'plab salbiy va vahshiy amaliyotlar keng tarqalgan edi. Shu bilan birga, bu davrda Makka shahri Ka'ba atrofidabutlar bilan gavjum bo'lib, savdo yo'lida bo'lgani uchun turli e'tiqodli kishilarning uchrashadigan joyi bo'lgan. Boylar va qudratlilar kambag'al va zaiflarga zulm qilar, nohaqlik oshkora qilinad edi. Islom payg'ambari Muhammad (s.a.v.) tavallud topgani bilan johiliyat davri tugadi va islom dinining tarqalishi bilan jamiyatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda Rasulullohga yaqindan ko'maklashadigan insonlar bo'lgan albatta Shu insonlarni ichidan eng sodiq ,kamtari Abu Bakr Siddiq edi . Abu Bakr ham bu davrda butlarga sig'ingan lekin islom tushgan dam keyin birinchilardan qabul qilgan xalifadr. Daslabki to'rt xalifadan birinchisi Abu-Bakr Siddiq payg'ambarimiz (s.a.v.) davati bilan islomni birinchilardan bo'lib qabul qilgan saxobadr. Tiriklik chogidayoq Jannat xush xabarini olgan 10 ta saxoba bolib shularning birinchisi AbuBakr Siddiq edi va bularning beshtasi Abu Bakr Siddiq qo'lidaislomga kirgan . Abu Bakr ibn Abu Kuhofaning asl ismlari Abdulloh ibn Usmon ibn Omir ibn Amr

ibn Ka'b ibn Sa'd ibn Taym ibn Murra ibn Ka'b ibn Luvayl al-Qurayshiy at-Taymiyidir. Otalarining ismi Usmon. Onalarining ismi Ummul hayr Salmo binti Sahr ibn Omirdir. Makka qo'lga kritilganda Abu Bakrning barcha qarindosh-urug'lari musulmon bo'lgan edi, faqatgina otalari Abu Kuhofana hamon eski dinida sodiq qollar edi. Tugilgan sanalari taxminan "Fil voqeasi" dan uch yil keyin milodiy 571 – yillarga to'gri keladi. Xazrati Abu Bakr Siddiq (r.a.) ning ishonchli ekanligi shu qadar ediki, Paygambaramiz (s.a.v.) "Men Alloxning Rasuliman "-deganlaridan oq ikkinlanmasdan ishonganlar . Termiziyning rivoyat qilishicha: Payg'ambarimiz (s.a.v.) Abu Bakr "Siz mening Havz bo'yidagi va g'ordagi birodarimsiz"-deganlar. Yana Termiziyning bitiklariga qarasak "Rasululloh (s.a.v.): "Abu Bakr Allohning do'zaxdan saqlagan bandasidir" – degan yana bir ajoyib rivoyatga duch kelamiz . Bundan korinib turibdiki Abu Bakr "Atiq" nomini olgan ekanlar ."Atiq " sozi arabchadan "saqlangan" degan manoni anglatadi . Bu to'grisida yana: "Nasabida hech qanday kamchlik bo'limgani uchun uni "Atiq" deyishadi degan mulohaza ham bor. Lekin ulug' imomlar u zotni "Siddiq" deb nomlashga qaror qilishgan. Ali ibn Abu Tolib rivoyat qilishicha: "Alloh taolo Abu Bakrni O'zining rasuli tilida "Siddiq" deb nomladi". Ha albatta , Abu Bakr har qanday vaziyatda Allohning rasulini qo'lladi, unga ishondi. Shu sababli ham :"Kimni Islomga da'vat qilsam o'ylandi, ikkilandi. Lekin Abu Bakr, Alloh undan rozi bo'lsin, Islomni zikr qilishim bilan darhol qabul qildi", - deb aytganlar Rasululloh (s.a.v.) . Payg'ambar (s.a.v.) ning Masjidul Aqsodan Me'rojga ko'tarilgani haqidagi xabar tarqalgach ko'pchilik, hatto Rasulullohning payg'ambarligiga ishonmagan va buni tasdiqlagan odamlarning ba'zilari bu habarni rad qilgan. O'shanda Abu Bakr: "Endi ham uni tasdiqlaysanmi?" – deb savol berishgan . Abu Bakr(r.a.) esa: "Agar Allohning rasuli bundan-da ishonish mushkulroq voqeа sodir bo'lganini aytganida ham men bu ishni rost deb bilaman, samodan kelgan xabarni doim tasdiqlayman", - deya javob bergenlar. Shuning uchun "Siddiq" nomini oldilar. Shu o'rinda "siddiq" so'ziga qisqachaizoh berib otamiz . Tilimizda "ishonch ","sadoqat", "inonmoq", "tasdiq" degan so'zlar mavjud. Arab tilidan o'zlashgan ushbu so'zlarning ma'nolari o'zbek tilining lug'at kitoblarida yetarlicha bo'lmasada ma'lum darajada izohlangan. "siddiq" so'zi ham shu so'zlar bilan o'zakdosh bo'lib so'zlarning asl ma'nosi o'zbek tilidagi "rostgo'ylik", "to'grilik" tushunchalariga yaqindir. Qur'on karimda "siddiq" o'zagidan yasalgan so'zlar 158 o'rinda uchraydi. Quran tahlilchilarining sharhiga ko'ra, ushbu so'zlar "haqni so'yash to'g'ri bo'lish, to'gri bolish" ma'nolarida. Imom

Buxoriy va Imom Muslim ittifoq qilishicha (Mutafaqun alayh): Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: "Albatta, siddiq yaxshilikka ,yaxshilik esa jannatga yo'llaydi. Kishi to rost gapirar ekan uni "siddiq" deb yozib qo'yiladi. Shubha yo'qki yolg'on yomonlik sari yomonlik esa jahannamga haydaydi. Kishi to yolg'on gapirar ekan uni "kazzob" deb yozib qo'yiladi". Abu Bakr Makkadagi eng boy va obro'li kishilardan bo'lganlar Odamlar orasidagi xun,to'lov ishlarida Abu Bakr (r.a.)mas'ul edi. Xatto makkada biror kishi kimdandir qarz olmoqchi bolsa avval Abu Bakr(r.a.)dan ishonchnoma olishi kerak bolgan .Xun ishlariga yoki to'lov masalarida boshqa kishi o'z zimmasiga olsa Quraysh ahli bosh tortishar edilar.Hazrati Abu Bakr asosan tijorat bilan shugullanganlar . Yana bir xislatlari tushtabirini yaxshi bilardilar. Johiliyat davridayoq, fisqu-fujurdan, yolg'ondan uzoq bo'lganlar, hamr ichkilikni o'zları uchun harom bilganlar.Abu Bakrning pok va saxiy qalbiga Islom birinchilardan bo'lib yo'l topdi. Yuqorida takidalganidek Usmon ibn Affon, Zubayr ibn Avvom, Abdurahmon ibn Avf, Sa'd ibn Abu Vaqqos va Talha ibn Ubaydullohlarning Islomga kirishlariga ham Abu Bakr Siddiq sababchi bo'lganlar. Abu Bakr Siddiq Rasululloh(s.a.v)ni mushriklar sitamidan doim himoya qilib kelganlar.Bir gal Nabiy alayhisalom Ka'bada namoz o'qiyotganlarida Uqba ibn Abu Muayt Rasululohni qattiq bo'gishni boshlaydi. Shunda Abu Bakr Uqbani itarib, Rasululloh(s.a.v.)ni uning qo'lidan bo'shatadilar va "Bir kishini: "Mening Parvardigorm Allohdir",degani uchun o'ldirurmisiszlar? Holbuki, u sizlarga Olloh tomonidan aniq hujjatlar keltirgandir." deya haqni ularga eslatdilar. (G'ofir surasi, 28).Abu Bakrning o'zi ham Qurayshdan ko'p aziyat chekkan. Islomning dastlabki davrida Rasululloh (s.a.v.) va sahabalar Arqamning uyida yashirincha ibodat qilishar edi. Bir kuni Abu Bakr Rasululoxga s.a.v: "Ibodatni oshkora qilaylik", deb qoldilar. Rasululloh s.a.v.: "Ey, Abu Bakr, biz ozchilikmiz" deganlariga qaramasdan, Abu Bakr so'zlarida turib oldilar.. Keyin Rasululloh (s.a.v.) sahabalar bilan birga chiqdilar. Abu Bakr odamlarga yuzlanib hitob qildilar.

Rasululloh s.a.v. o'tirgan hollarida Allohgaga duo qilishni boshladilar. Abu Bakr Allohgaga oshkora da'vat qilgan ilk saxobalardan edilar. O'shanda mushriklar Abu Bakr (r.a.) va boshqa musulmonlarga tashlanib ularni qattiq kaltaklashdi. Abu Bakr oyoq ostida qolib ketdilar. Utba ibn Robi'a Abu Bakrning yuzlariga temir poshnali kavushi bilan ura boshladi. Shu darajada urdiki, burunlarini yuzlaridan ajratib bo'lmay qoldi. Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya dagilar kelib, o'rtaga tushishdi. Abu Bakrni mushriklardan tortib olib uyiga eltishdi. U zot go'yo jonsiz holatda edilar.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st January, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

So'ngra taymliklar ortga qaytib , masjidga kirishdi : "Agar Abu Bakr o'lsa, Utbani ham o'ldiramiz", deb qasam ichishdi. Keyin Abu Bakrning oldiga kelishdi. U yerda Abu Kuhofa ham bor edi. Ular Abu Bakrni so'zlashga undashdi. Lekin to kechgacha Abu Bakr biror so'z demasdidalar. Keyin gapirdilar va ilk so'zlar shu bo'ldi:

- Rasulullohga nima qildi?
- Uni haqorat qilishdi.

Abu Bakr yana savolini takrorladi. Shunda onasi dedi:

- Alloha qasamki, do'sting to'g'risida hech nima bilmayman.
- Boring Ummi Jamildan Rasululloh haqida so'rang,- deidlar Abu Bakr. Abu Bakrning onasi Ummi Jamilnikiga chiqib, Muhammad Ibn Abdulloh haqlarida so'radi. Shunda u: "Muhammadning ham, Abu Bakrning ham ahvoli nima bo'lganini bilmayman, hohlasang birga boraman", - dedi. Ummi Jamil Abu Bakrning onasi bilan birga chiqib Abu Bakrning oldiga keldi. U zot behush yotgan edilar. Ahvollarini ko'rib Ummi Jamil chinqirib yubordi va:

- Bu qavm fisq ahli bo'lgani uchun ham sizni shu ahvolga soldi.Umid qilamanki Alloh albatta ulardan intiqom oladi,- dedi. Alloh rozi bo'lsin, Abu Bakr shunda o'ziga kelib:

- Rasulullohga nima bo'ldi? - dedilar.
- Rasululloh Arqamning uyida sog'-salomat, dedi Ummi Jamil. Shunda Abu Bakr:

- Alloha qasamki, to Rasulullohning huzurkariga bormagunimcha taomtotmayman, sharob ham ichmayman, - dedilar.

Onasi deydi: "Odamlar ko'chada siyrakalshib qadamlar tinganida o'g'lim menga suyangan ko'yи tahsqrariga chiqdi. Bir ozdan keyin Rasulullohning huzurlariga yetdik. Rasululloh s.a.v. Abu Bakr tomon qadam tashlab engashdilar, uni o'ta muloyimlik bilan bag'rilariga boshdilar, musulmonlar ham shunday qilishdi. Abu Bakr: "Ota-onam sizga fido bo'lsin, ey, Allohnig rasuli menga hech narsa bo'lindi, faqt yuzimga ozgina ozor yetkazishdi. Bu ayol mening mehribon onajonim, qani endi Alloh onamni ham do'zax olovidan halos etsa!", dedilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.) uning haqqiga duo qildilar va u musulmon bo'ldi.

Hazrati Abu bakr Alloh xush korgan bandalardan edilar Abu bakr Ibn Adiy rivoyat qilishicha "Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar:" Alloh taolo,ohiratda insonlarga ommatan, y'ani hammalariga baravar tajalli qiladi. Ammo Abu Bakrning o'ziga alohida tajalli qiladi". Hujjatul Islom G'azzoliy buhadisni sharhlar ekan shunday

deydi: "Bu so'zlardan: "Hamma Allohnning diydorini topadi, Alloh ko'rish lazzatini totadi, faqat bu lazzat Abu Bakrga yetishgan lazzatdan kam bo'ladi, degan xulosani chiqarmaslik kerak. Chunki, Diyrdorga hamma ham yetolmaydi. Agar kimga bu oliv saodat Nasib etsa, Abu Bakrga yetgan zavqning yuzdan, balki mingdan birini topishi mumkin. Shunda ham bu dunyodagi Allohnini tanish darajasi Abu Bakr ma'rifatining yuzdan, mingdan biriga teng bo'lsa. Shubha yo'qki, Abu Bakr qalbining tub tubiga o'mashgan siri bilan ummatning eng afzali bo'ldilar.

Shunday ekan, nima uchun u zot o'sha sir tufayli Allohnning alohida e'tiboriga va tajallisiga sazivor bo'lmasinlar?!" Abu Bakr yaxshilik qilishda barchadan peshqadam edilar. Termiziyyning yana bir hadisida :"Umar ibn Hattob Madinaning chekkasida yashaydigan bir ko'zi ojiz kampirnikiga tunlari borib, uy yumushlariga qarashar, hatto ovqatlantirib qo'yар edilar.

Navbatdagi tunlardan birida kimdir kampirnikiga borib undan oldin barcha yumushlarni ado qilib ketganiga guvoh bo'ldilar. Bu ish ahr safar takrorlanaverdi. Umarning sabri chidamadi, bu ishlarni kim qilayotganini bilish uchun uyni kuzata boshladi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, bu kishi halifa Abu Bakr Siddiq (r.a.) edilar.

- Siz ekansizda bu ishlarni mendan oldin bajarayotgan, doimo hayrli ishda mendan peshqadamsiz, - dedi shunda Umar do'sti Abu Bakrga. Abu Bakr Siddiq Alloh va Rasuliga sadoqatlari tufayli jannatda payg'ambarlardan keyingi maqomga sohibdirlar. Ali ibn Abu Tolibdan rivoyat qilinadi: "Rasululloh s.a.v Abu Bakr va Umarga qarab turib: "Bu ikkisi nabiy va rasullardan boshqa barcha avvalinu ohirin jannah ahlining sayyididir!Ey, Ali faqat ularning o'zini bu gapdan habardor qilmagin", dedilar". Mana ko'rib turibdiki Abu Bakr Rasululohga shu qadar o'rganib qolgan edilarki buni bir so'z bilan bilan tariflash juda mushkul . Endi bu muhabbatdan qanday ayrilish mumkin ,bir o'ylab ko'ring. Makkadan Madinaga hijrat qilishda Muhammad (s.a.v)ga hamroh, g'orda hamnishin bo'lgan. Badr, Uhud, Handaq, Xudaybiya va b. joylardagi janglarda ishtirok etgan. Abu Bakr Siddiq (r.a) umr bo'yi to'plagan 40 ming dirhamlarini islom yo'liga sarf qilgan, chunonchi, Bilol Habashiyni sotib olib, qullikdan ozod etgan. Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin birinchi xalifa bo'lib saylangan Arab qabilalarining Madina hokimiyatiga qarshi ko'targan qo'zg'olonlarini bostirgan . Abu Bakr Siddiq (r.a) xalifaligi davrida arablar Iraq va Suriyani fath etgan. 634 yildan Vizantiya imperatori yani Rum sultonni Irakliy yuborgan yuz mingdan ortiq qo'shin ham islom lashkarlaridan yengilgan.Qur'oni karimni tartibga solib, jild holiga keltirishga kirishgan. Sarvari olamdan 142 hadis rivoyat qilgan. Islom davlatini boshqarishda qator tartiblar joriy etgan, mamlakatni boshqarish uchun Maslahat kengashi, har bir viloyatga voliy (hokim) tayinlash, Baytulmol tashkil etish

kabilar shular jumlasidandir. Abu Bakr Siddiq (r.a) Muhammad (s.a.v) vasiyatlariga sodiq qolib juda kamtarona hayot kechirganlar. 634-yil Madinada vafot etganlar va Muhammad (s.a.v) yonlariga dafn qilinganlar. Abu Bakr tengi yo'q inson edilar. Abdulloh ibn Umar aytadilar: "BizRasululloh (s.a.v.) zamonlarida: "Agar Abu Bakr, Umar va Usmon ketsa, odamlar bir hil bo'lib qoladi", der edik. Bu gapimiz Rasululloh (s.a.v.)ga yetganida, u zot gapimizni inkor etmadilar". Otalarining olimiga Oisha onamizning ta'ziya so'zлari: "Alloh yuzingizni yorug' qilsin otajon. Solih amallaringizdan O'zi rozi bo'lsin. Dunyodan yuz o'girib, uni hor tutdingiz, ohiratga yuzlanib aziz bo'ldingiz. Rasululloh s.a.v. vafotidan keyingi eng katta musibat sizning vafotingizdir. U zordan keyingi eng katta yo'qotish sizni yo'qotishimizdir. Albatta, ulug' va qudratli Zot Allohning Kitobi bizni chiroyli sabr qilishga undaydi. O'limingizga sabr etish bilan Allohning amriga bo'ysinamiz. Siz uchun ko'p istig'for aytib, Allohdan yordam so'rayman. Sizga Allohning salomlari bo'lsin".

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.islom.ziyouz.saytidan:<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=>
<https://islom.ziyouz.com/siyrat/sahobalar/abu-bakrsiddiq&ved=2ahUKEwi39tC8hI2DAxUuFhAIHRM7Dc8QFnoECC0QAQ&usg=AOvVaw1wpcn3b8dkx63iMU6mq1kl>.
- 2.Hadis va hayot,21-juz,Abu Bakr va umar roziallohu anhu.
- 3.Islom ensiklopediyasidan.